

## CHIG‘ATOY ULUSI DAVRIDA MARKAZIY OSIYODAGI ETNIK VAZIYAT



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-451-453>

**Imamnazarov Qahramon Utkurovich**

mustaqil izlanuvchi.

kohihon@mail.ru

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы этнического изучения чагатайского периода истории Средней Азии на основе материалов китайских летописей. Особое значение среди чагатаев имели четыре рода: Арлат, Джалаир, Каучин и Барлас. По мнению некоторых исследователей, термин «чагатай» первоначально применялся именно к этим монгольским племенам, составившим армию Чагатая. рассматриваются сами как «чагатайский» персонаж, производится их анализ и сравнение с другими этнографическими источниками.

**Ключевые слова:** Чагатай, Арлат, Джалаир, Каучин, Барлас, Кангали, Кипчак, Кыргыз, Аз-Ширин, Аргин.

**Abstract:** the article deals with the issues of ethnic study of the Chagatai period of the history of Central Asia based on the materials of Chinese chronicles. Four clans were of particular importance among the Chagatai: Arlat, Jalair, Kauchin and Barlas. According to some researchers, the term “Chagatai” was originally applied specifically to these Mongol tribes that made up Chagatai’s army. themselves as “Chagatai «character is considered, their analysis and comparison with other ethnographic sources are made.

**Key words:** Chagatai, Arlat, Jalair, Kauchin, Barlas, Kangali, Kipchak, Kyrgyz, Az-Shirin, Argin.

Mog‘ullar istilosidan so‘ng Markaziy Osiyo hududi Jo‘ji va Chig‘atoyxon ulusi tarkibiga kirgan. Ular o‘zlari mustaqil ulus sifatida faloliyat olib boragan bo‘lsalarda umummiy mog‘ullar imperiyasidagi qonuniyatlarga bo‘ysunganlar. Movarounnahrning uchdan ikki qismi Baroqxon qo‘liga o‘tgan, bo‘lsada Chig‘atoyxon ulusi ulusini Mas‘ud Yalavach zimmasiga yuklangan edi.

XIII-XIV asrlarda tarixiy manbalarda Markaziy Osiyo aholisi turli tuman qabilalardan tarkib topgandi. Ko‘chmanchilarning ko‘pchiligi turkiyzabon qabilalar: qirg‘izlar, qipchoqlar, qonglilar, yamaklar (yemek, kimaklar), chigil, yag‘ma, tuxsi, o‘g‘uz, qora kunasi, yabagular bo‘lib, mo‘g‘ullar bosqinidan oldin Movarounnahrning markaziy va sharqiy hududlari yashaganlar. Movarounnahr

Mo‘g‘ullar davrida Markaziy Osiyo o‘lkasi va unga tutash hududlarga juda ko‘p qabilalar ko‘chib kelgan. Umuman olganda, migratsiya bir necha bosqichda sodir bo‘lgan. Birinchi bosqich Chingizxon istilolari bilan bog‘liq bo‘lib, bir qancha turkiy-mo‘g‘ul birlashmalari naymanlar, keraitlar va merkitlar Markaziy Osiyo ko‘chib kelganlar. Ikkinchi bosqich 1227 yilda Chingizxon imperiyasining to‘rtta ulusga bo‘linishi davrida ro‘y berdi, har bir mulkka 4 dan 20 minggacha qo‘shinlar ajratilgan. Qo‘shinlar oilalari bilan birga ko‘chib keshgan. Ular orasida barlos, jaloyir, qavchin, qong‘rot va arlat qabilalari bor edi.

Ular bilan birga baxrinlar, qirg‘izlar, qipchoqlar, mang‘itlar va boshqalarning alohida qudratli o‘rmon qabilalari Chingiziy shahzodalari xizmatiga kirgan. XIII asrning o‘rtalariga kelib, Oltin O‘rda xonlariga tayanib, butun mo‘g‘ul xoni Xubilayxonga qarshi urush boshlagan. Bu vaqtda mang‘it va qirg‘iz qabilalari sharqdagi yerlarini tashlab, Oltin O‘rda va Qayduxon davlatidan himoya izlab, g‘arbga ko‘cha boshladilar.

XIII-XIV asrlarda siyosiy jihatdan mintaqadagi qabilalari Chingiziy sulolasi vakillari tomonidan boshqarilgan, Chag‘atoy ulusi, Oltin O‘rda mustaqil davlat sifatida tarkib topgan. Rahbarlar va amirlar xon qarorgohida qabila yoki urug‘ manfaatlarini himoya qilganlar. Manbalarda aytilishicha, Oltin O‘rda va Mo‘g‘ulistonning shakllanishida qanglilar, qipchoqlar, qirg‘izlar, az-shirinlar, arg‘inlar, baxrinlar muhim ro‘l o‘ynagan.

Bu davrda Markaziy Osiyda ko‘chmanchilarini umumiy etnosiyosiy tarix, hudud, ishlab chiqarish usuli, turmush tarzi, madaniyati va boshqalar birlashtirganini ta’kidlaymiz. Ko‘chmanchi turmush tarzi katta imkoniyatlar ochib, ularning bir-biriga yaqinlashishi, o‘zaro tarixiy-madaniy aloqalarning rivojlanishi va integratsiyalashuvida muhim omil bo‘lgan.

Ulardan eng yiriklari duglatlar, barinlar, churalar, duxtuylar, barloslar, sagarachilar (konchi), bulgachi, qangli-bekchiklar, keraitlar va boshqalar hisoblangan. Kichik, ahamiyatsiz birlashmalarga arkanut, sulduz, itarchi, yarki (Barki) qabilalari kirgan. Yuqorida tilga olingan qabila va urug‘lardan eng yiriklari duglatlar, baarinlar, churalar, duxtuylar, barloslar, kichiklari esa tatarlar edi. Ularning aksariyati turkiyzabon birlashmalarning vakili bo‘lgan.

Mo‘g‘uliston tarkibidagi yirik turkiy qabilalar huquq jihatidan mo‘g‘ullardan hech qanday kam bo‘lmagan, faqat taxtga vorislik masalasida va boshqa masala hukmron sulolaning huquqlari bilan bog‘liq bo‘lganida.

Bizningcha, bu jarayonda ko‘pchilik turkiyzabon qabilalarining barloslar, qipchoqlar, qanglilar va boshqa turkiy ko‘chmanchilar g‘arbga ko‘chirilishidan oldin ham yaqin aloqada bo‘lganligi muhim rol o‘ynagan.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, sharqiy qabilalarning, jumladan, baxrinlar, cheriklar, naymanlar, qirg‘izlarning g‘arbga ko‘chishining asosiy sabablaridan biri Tyan-Shanda Qaydu davlatining tashkil topishi edi. O‘sha davrda ko‘pchilik qabilalar Qayduxon bilan

birlashib, turli imtiyozlarga erishib, mintaqadagi siyosiy va ijtimoiy mavqeini yaxshilashga harakat qilgan.

### FOYDALAINILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCE)

1. Хабижанова Г. Б. Огузские сюжеты в этнической истории тюркских племен Западного Казахстана // Вопросы истории Кыргызстана. -Б.,-2010. -№ 3. 74-78 с
2. Зуев Ю.А. Из древнетюркской этнонимии по китайским источникам // Труды ИИАЭ имени Ч.Валиханова АН Казахской ССР. Т.ХV, Алма-Ата, 1962. – 103–122 с
3. Караев О.К. История Караханидского каганата (X -начала XIII в.). Издательства: Илим – Фр.,1983. -301 с
4. Малявкин А.Г., Историческая география Центральной Азии. Н.,1981.-337с.
5. Бартольд В. В. Сочинения. Том II. Часть 2. — Москва: Наука, 1964. — 288 с
6. Мокеев А.М. Кыргызы на Алтае и на Тянь-Шане. - Б., 2010. – 278 с
7. "The Chahatai Khanate" The Islamic World to 1600. 1998. The Applied History Research Group, University of Calgary. Retrieved 19 May 2005.
8. Kim, Hodong. "The Early History of the Moghul Nomads: The Legacy of the Chaghatai Khanate." The Mongol Empire and Its Legacy. Ed. Reuven Amitai-Preiss and David Morgan. Leiden: Brill, 1998
9. 察哈台汗国 史研究。刘迎胜。上海. 2006. 70- 130 页。